



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **INTELLEKTUAL KAMCHILIGI BO'LGAN O'QUVCHILARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA KORREKSION-MUSIQAVIY PEDAGOGIK TA'SIR**

**Miraxmedova Lobar Axmatovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu mavzuda intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirish jarayonida korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sirning ahamiyati yoritiladi. Musiqa va korreksion pedagogika usullarining uyg'unlashuvi orqali o'quvchilarning bilish jarayonlari, diqqat, xotira va emotsional holatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqiy faoliyatning ijobiy psixologik va pedagogik ta'siri, shuningdek, individual yondashuv asosida rivojlantirish metodlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Ritmika, ixtisoslashtirilgan maktab, pedagogik texnologiya, musiqiy tarbiya, estetik rivojlanish, intellekt, jarayon, korreksi, diqqat, xotira, emotsi.

## **КОРРЕКЦИОННО-МУЗЫКАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ**

**Мирахмедова Лобар Ахматовна**

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, преподаватель

### **Аннотация**

В данной теме рассматривается значение коррекционно-музыкального педагогического воздействия в развитии учащихся с интеллектуальными нарушениями. Анализируются возможности улучшения познавательных процессов, внимания, памяти и эмоционального состояния учащихся через сочетание методов музыкальной терапии и коррекционной педагогики. Особое внимание уделяется положительному психолого-педагогическому влиянию музыкальной деятельности и методам индивидуального подхода в обучении.

**Ключевые слова:** Ритмика, специализированная школа, педагогические технологии, музыкальное образование, эстетическое развитие, интеллект, процесс, правильность, внимание, память, эмоции.

## **CORRECTIVE MUSICAL PEDAGOGICAL INTERVENTION IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES**

**Mirakhmedova Lobar Akhmatovna**

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Lecturer

### **Abstract**

This topic explores the importance of corrective and music-based pedagogical intervention in the development of students with intellectual disabilities. It analyzes how the integration of music therapy and special education methods can improve cognitive processes, attention, memory, and emotional regulation. The study highlights the positive psychological and pedagogical effects of musical activities and emphasizes individualized approaches in educational practice.

**Keywords:** Rhythmics, specialized school, pedagogical technologies, music education, aesthetic development, intelligence, process, accuracy, attention, memory, emotions.

Musiqiy madaniyat hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vatanga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois sog'lom bolalar qatori intellektual kamchiligi bor o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, ritmik faoliyatni rivojlantirish oligofrenopedagogikada korreksion tarbiyaning bosh maqsadlaridan biri bo'lib turadi.

Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun maxsus maktablarda ritmika darslari o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardir:

1. Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarda musiqaviy-ritmika san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy, estetik, jismoniy tarbiyalash.
4. Ritmik harakatlarni raqslar asosida faollashtirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish ritmika darsi o'qituvchisining professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Buning uchun ritmika darsi o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, sabr-qanoatli, mehr-muruvvatli, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. Ritmika o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalari, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak.

#### Adabiyotlar tahlili

Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirishda korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sir masalasi turli ilmiy yo'nalishlar kesishgan nuqtada o'rganilgan bo'lib, bu borada psixologiya, defektologiya, musiqa pedagogikasi va neyropsixologiya sohalarida muhim nazariy hamda amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mazkur yo'nalishning nazariy asoslari avvalo L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhit va ta'lim yetakchi rol o'ynaydi hamda maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir orqali bolaning mavjud imkoniyatlarini kengaytirish mumkin [5, 112-b.]. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali korreksion ta'limning samaradorligini asoslab bergan bo'lib, bu g'oya musiqa orqali rivojlantirish jarayonida ham muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

A.R. Luriya esa oliy nerv faoliyati va kognitiv jarayonlarning neyropsixologik mexanizmlarini o'rganib, xotira, diqqat va nutqning shakllanishida turli miya tizimlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi [6, 85-b.]. Uning tadqiqotlari musiqaning miya faoliyatiga kompleks ta'sirini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ritmik va melodik stimullar orqali sensor va motor tizimlarning faollashuvi korreksion ishlarda samarali vosita sifatida qaraladi.

L.V. Zankovning ishlari aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda rivojlantiruvchi ta'lim tizimini asoslab beradi. U o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirishda murakkab, ammo moslashtirilgan topshiriqlarning ahamiyatini ta'kidlaydi [7, 64-b.]. Bu yondashuv musiqa darslarida ham qo'llanilib, bolalarning ijodiy va bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

M.S. Pevzner tomonidan aqliy zaiflikning klinik-pedagogik tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, u turli darajadagi intellektual nuqsonlarga ega bolalar bilan differensial yondashuvni talab etadi [8, 39-b.]. Bu esa musiqiy mashg'ulotlarni individual xususiyatlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Musiqiy pedagogika sohasida K. Orf tomonidan yaratilgan "Schulwerk" tizimi bolalarning ritm, harakat va musiqani integratsiyalashgan holda o'rganishini ta'minlaydi [9, 27-b.]. Ushbu metodika ayniqsa intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilar uchun samarali bo'lib, ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. D.B. Kabalevskiy esa bolalarda musiqiy idrokni shakllantirishda oddiydan murakkabga o'tish, obrazli tafakkurni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi [10, 52-b.].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham ushbu muammo keng yoritilgan. P. Po'latova maxsus pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning korreksion yo'llarini ko'rsatadi [11, 134-b.]. V.S. Raxmanova esa defektologiya asoslarida korreksion-pedagogik jarayonning tizimlilikini va kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [12, 98-b.].

G'. Shoumarov va K. Mamedov tomonidan o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va diagnostikasi o'rganilib, ularning bilish jarayonlari individual rivojlanish darajasiga bog'liqligi asoslab berilgan [13, 76-b.]. Bu esa musiqiy faoliyatni tashkil etishda differensial yondashuvni qo'llash zaruratini ko'rsatadi. D. Nurkeldiyeva esa maxsus ta'lim tizimidagi muammolarni tahlil qilib, innovatsion metodlarni joriy etish muhimligini qayd etadi [14, 55-b.].

So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda musiqa ta'limini raqamlashtirish va individuallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanganeria va Gala musiqiy ta'limda sun'iy intellekt asosida shaxsga moslashtirilgan o'qitish imkoniyatlarini ko'rsatadi [1]. Civit va boshqalar esa musiqiy qurilmalar orqali o'quv jarayonini interaktiv tashkil etish modelini taklif etadi [2]. Ramoneda va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan metodika esa murakkab musiqiy materiallarni soddalashtirish orqali inkluziv ta'limni qo'llab-quvvatlaydi [3].

Shuningdek, I.P. Arxipova tadqiqotlarida musiqa va art-terapiya elementlari orqali mayda motorikani rivojlantirish masalalari o'rganilib, bu usullar o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan [4, 48-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sir intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Musiqa orqali kognitiv jarayonlarni faollashtirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuvni yaxshilash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va individual yondashuvni uyg'unlashtirish ushbu yo'nalishning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### Metodologiya

Tadqiqotda nazariy (adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish) va empirik (kuzatish, tajriba-sinov, suhbat) metodlardan foydalanildi. Tajriba ixtisoslashtirilgan maktabda o'tkazilib, o'quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida musiqiy-ritmik mashg'ulotlar qo'llanildi, nazorat guruhida an'anaviy usullar saqlandi. Natijalar taqqoslash va tahlil orqali baholandi.

#### Tadqiqot natijalari

Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, xonanda, xor dirijyori, jo'rnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim. Ritmika o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga ssenariy muallifi, uning ijrochisi va rejissori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqiy-ritmika darsi san'at darsi deyiladi. Maktab hayotida ritmika o'qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir. Sinfdan tashqari ritmika o'qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir.

Sinfdan tashqari musiqiy-ritmik tarbiya turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini, "Navro'z" bayramlari, "Alifbe" bayramlari, "Musiqa haftaliklari", "O'zbekiston — Vatanim manim", "Ilhom chashmalari", "Onalar bayrami" kabi bayramlarni uyushtirish ritmika darsi o'qituvchisi zimmasidagi vazifadir.

Namunaviy darslar ishlanmasi, mahalliy musiqa va dars faoliyatlari dars mavzusining ajralmas bir qismi bo'lib, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Yangi dasturlarning o'ziga xos xususiyatli tomoni shundan iboratki, intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilar ritmika fanining asosi bo'lgan musiqa savodxonligiga doir elementar bilimlarni tarkib toptirishi lozim bo'lgan qator musiqiy qonuniyatlar, jumladan, musiqiy tovushlar, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakllari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi haqida sodda bilimlarni egallashlari kerak. Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun ritmika o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Chunki mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta mas'uliyat musiqa o'qituvchisining oldiga vazifa qilib qo'yilmoqda.

Ritmika ta'limi samaradorligini ta'minlashda, o'quvchilarning ritmika darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirishda o'qituvchi yetakchi hisoblanadi. Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Chunki bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Ritmika darslari bolalarning aqliy, jismoniy hamda axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ritmika darslari, eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Ritmika darslarida musiqiy-ritmika intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilar shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va fiziologiyasiga aktiv ta'sir ko'rsatadi. Alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarning asosiy vazifalaridan biri intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va o'ylashga, jismoniy va intellektual rivojlanishga qaratilgan korreksion ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdir.

Bu vazifani amalga oshirishda ritmika darsi muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, "jonli" qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat-e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ulariga ham aktiv ta'sir etadi. O'quvchilarning darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, musiqa madaniyatining mazmuni va ma'nosini ifodalash, tushuntirish maqsadida aniq hodisalar va misollardan foydalanish. Ushbu voqealarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini, madaniyatini, ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib ongini oshirish

yo‘llarini takomillashtirib borishi lozim.

Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasining did bilan namunali jihozlangan bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko‘rgazmali qurollar, pianino cholg‘u asbobi va o‘zbek xalq cholg‘u asboblari bilan jihozlangan bo‘lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja-konspektlarini tuzib, yangi texnologiyani qo‘llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarining maqsadi va mazmuni dars mavzularini yoritib, hayot bilan bog‘lab, darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishni talab etadi. Musiqa darsi boshqa darslardan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi, eng avvalo, tarbiya darsidir.

Ritmika darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi: musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg‘u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Agar badiiy adabiyot so‘z bilan, tasviriy san‘at ranglar bilan, raqs san‘ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa mantiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san‘at turlarini ko‘rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun ko‘zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan. Ritmika darslarida ritmik mashg‘ulotlar bolalarga aktiv emotsional ta‘sir ko‘rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg‘otadi.

Yaxshi, mazmunli, qiziqarli ritmika darsidan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo‘lib chiqadilar. Xullas, ritmika darsi o‘zining aktiv psixologik ta‘siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, ritmika darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir: tasviriy san‘at, adabiyot, ona tili, matematika va boshqalar. Bular ritmika darsini hayot bilan bog‘lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Ritmika darsi o‘zining aralash darsi tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Ritmika darsining strukturasi 3 asosiy faoliyat turidan: musiqa tinglash, musiqa savodi va raqs elementi, gimnastik harakatlardan iborat.

Ritmika darsini davlat ta‘lim standartiga muvofiq, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, uzluksizligi va uzviyligini asos qilib, o‘quvchilarda ritmik faoliyatlarning izchilligini ta‘minlaydi.

Musiqa ta‘limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi. Har bir dars o‘zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Ritmika darslarida musiqa hayotidagi bilimlar doirasi musiqa ta‘limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o‘z aksini topgan. Ularni o‘zlashtirish — ritmika darslarida ritmik mashg‘ulot amaliyoti yo‘lida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish demakdir.

Dars jarayonida o‘quv materiallarining bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozinin rivojlanish qonuniyatlarini to‘g‘ri o‘rgatish, asarlarni bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni sistemaliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o‘quv faoliyatlari hamda keyingi darslarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishi sistemalilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko‘tarib, soddadan murakkabga, noma‘lumdan ma‘lumga qarab o‘zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo‘lib, sistemalilik demakdir. Darsning har bir faoliyati o‘z navbatida, har bir darsning mantiqiy davomi bo‘lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir.

Darsda o‘quvchilarning ongliligi va aktivligi prinsipi. Mazkur prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridanidir. Chunki bilimni o‘zlashtirish o‘quvchining aqliy faoliyatiga asos bo‘lgan bilish jarayoniga bog‘liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi. Real voqelikni badiiy his etib bilish, fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Mazkur malaka va ko‘nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun bolaning o‘quv materiallarini ongli ravishda bilib o‘zlashtirishi bilish jarayonining aktivligini vujudga keltirishi lozim. Ma‘lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o‘zlashtirish va undan badiiy-estetik zavqlanib, idrok etishda bolaning, eng avvalo, diqqat-e‘tiborini jalb eta bilish, unda qiziqish uyg‘ota bilish onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani, ritmik harakatlarni, raqs harakatlarini ongli idrok etish o‘z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg‘un shakllanishni talab etadi. Ritmika darsida raqs harakatlarini eslab qolish ritmik faoliyatlarni rivojlantirishda ayniqsa zarurdir.

Ritmika darslarida ko‘rgazmalilik prinsipi. Ritmika darslarida musiqaning o‘zi-o‘ziga ko‘rgazmali vositadir. Chunki oyoq-qo‘l harakatlari, raqs harakatlari ko‘rsatma tarzda o‘rgatiladi. Musiqiy-ritmika ham quloq bilan idrok etiladi, ham harakatlar bilan bajariladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko‘rgazma sifatida chalib ko‘rsatiladi. O‘qituvchining o‘zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko‘rgazma bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko‘rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar,

nota yozuvlari ham ritmika darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi.

O'quv materiallarining bolalar bilimi va malakalariga mosligi prinsipi. Mazkur prinsip dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart. Dastur asosida har bir sinfning bilim va malakalari hisobga olingan holda ritmika darsining yillik kalendar-mavzuli rejasi tuziladi. Kalendar-mavzuli ish rejasini tuzishda o'quvchilarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, dars faoliyatlari hisobga olinadi.

Ritmika darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi. Mazkur prinsipni amalga oshirishning eng asosiy sharti yuqorida bayon etilgan to'rtta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Birinchidan, bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyeligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asar va uning ijro uslublari madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim. Ikkinchidan, asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak: a) asarning bolalarning badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi; b) musiqa ta'limining xususiyati; v) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqitira olish va to'la o'zlashtirishga erishish. Uchinchidan, darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rganish va keyingi darslarda mustahkamlab takrorlash. To'rtinchidan, ritmika darsida har bir yangi bilim elementi dars faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

#### Muhokama

Tadqiqot jarayonida korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sirning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning diqqat, xotira, ritmni his etish, emotsional holati, faolligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi dastlabki va yakuniy bosqichlarda diagnostika qilindi. Olingan natijalar taqqoslanib, o'zgarish dinamikasi foiz ko'rsatkichlarida ifodalandi. Quyidagi jadvalda tajriba natijalari umumlashtirilgan holda keltirilgan.

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Boshlang'ich daraja (%)</b>	<b>Yakuniy daraja (%)</b>	<b>O'zgarish (+/-)</b>
Diqqat barqarorligi	40	65	+25
Xotira (eshitish orqali)	35	60	+25
Ritmni his etish	30	70	+40
Emotsional holat	45	75	+30
Faollik (dars jarayonida)	50	80	+30
Ijtimoiy moslashuv	38	68	+30

Tajriba-sinov natijalari asosida tuzilgan jadval ko'rsatkichlari korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sirning intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilar rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Dastlabki va yakuniy natijalar taqqoslanganda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish kuzatilgani metodikaning samaradorligini ko'rsatadi.

Xususan, diqqat barqarorligi 40 foizdan 65 foizga oshgani musiqiy faoliyat jarayonida o'quvchilarning darsga jalb etilishi kuchayganini anglatadi. Ritmik mashg'ulotlar, ayniqsa musiqa bilan uyg'un harakatlar bajarish, diqqatni bir nuqtaga jamlash va uni ma'lum vaqt davomida saqlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarning boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xotira ko'rsatkichlarining 35 foizdan 60 foizga oshishi eshitish orqali qabul qilish va eslab qolish jarayonlarining faollashganidan dalolat beradi. Musiqiy asarlarni tinglash, ritmik ketma-ketliklarni takrorlash va qo'shiqlarni yod olish o'quvchilarda eshituv xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda takrorlash va obrazli idrok etish muhim rol o'ynaydi.

Eng yuqori o'sish ritmni his etish ko'rsatkichida (30 foizdan 70 foizga) kuzatilgan bo'lib, bu musiqiy-ritmik mashg'ulotlarning bevosita ta'sirini ifodalaydi. Ritm bilan ishlash nafaqat musiqiy qobiliyatni, balki umumiy motorika, koordinatsiya va harakat aniqligini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, ritmik faoliyat o'quvchilarning ichki tartib-intizomini shakllantirishga yordam beradi.

Emotsional holatning 45 foizdan 75 foizga yaxshilanishi musiqa vositasida ijobiy hissiy muhit yaratilganini ko'rsatadi. Musiqa o'quvchilarda quvonch, qiziqish va ruhiy ko'tarinkilikni uyg'otib, ularning psixologik holatini barqarorlashtiradi. Ayniqsa, jamoaviy musiqiy faoliyatlar ijobiy emotsiyalarni kuchaytirib, o'zaro muloqotni rivojlantiradi.

Dars jarayonidagi faollikning 50 foizdan 80 foizga oshishi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishi ortganini bildiradi. Musiqiy o'yinlar, raqs elementlari va interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarni

faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa passiv o'quvchilarning ham jarayonga jalb qilinishiga imkon yaratadi. Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarining 38 foizdan 68 foizga oshishi esa korreksion-musiqaviy faoliyatning ijtimoiy jihatdan ham muhim ekanini tasdiqlaydi. Guruh bo'lib kuylash, birgalikda harakat qilish va o'zaro hamkorlik o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, o'zini tutish madaniyatini shakllantiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, korreksion-musiqaviy pedagogik yondashuv o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki ularning kognitiv (diqqat, xotira), emotsional va ijtimoiy rivojini ham kompleks tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu metodikaning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishi maxsus ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

#### Xulosa

Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirish jarayonida korreksion-musiqaviy pedagogik ta'sir muhim pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy faoliyatning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishi o'quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, diqqat va xotirani mustahkamlash, emotsional holatini barqarorlashtirish hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Musiqi va ritmik harakatlarning uyg'unligi o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki umumiy psixofiziologik rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib, ularning faolligini oshirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali natija beradi. Shu bois korreksion-musiqaviy pedagogik yondashuvni maxsus ta'lim tizimida keng qo'llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish va amaliyotga izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sanganeria M., Gala R. Tuning music education: AI-powered personalization in learning music // *International Journal of Music Education*. – 2024.
2. Civit M. et al. A framework for AI-assisted musical devices // *Proceedings of the International Conference on Music Technology*. – 2024.
3. Ramoneda P. et al. Difficulty-controlled simplification of piano scores for inclusive music education // *Journal of New Music Research*. – 2025.
4. Архипова И. П. Развитие мелкой моторики у обучающихся с интеллектуальной недостаточностью с использованием арт- и музыкально-терапевтических методов // *Дефектология*. – 2024. – № 2. – С. 45–52.
5. Выготский Л. С. Основы дефектологии. – М.: Педагогика, 1983. – 287 с.
6. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. – М.: Академия, 2003. – 384 с.
7. Занков Л. В. Развитие умственно отсталых детей. – М.: Просвещение, 1986. – 256 с.
8. Певзнер М. С. Клиническая характеристика умственной отсталости. – М.: Медицина, 1979. – 240 с.
9. Орф К. Шульверк. Музыка для детей. – М.: Музыка, 1978. – 112 с.
10. Кабалевский Д. Б. Как рассказывать детям о музыке. – М.: Просвещение, 1989. – 144 с.
11. Po'latova P. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 256 b.
12. Raxmanova V. S. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 220 b.
13. Shoumarov G'., Mamedov K. Psixologik xususiyatlar va diagnostika. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 180 b.
14. Nurkeldiyeva D. Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent: Fan, 2015. – 200 b.
15. Abduraxmonov A. Musiqi ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 192 b.